

Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

IV. META MA'LUMOTLAR

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 007 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 73 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 934 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyun oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 15 931,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 119,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 830,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 141,0%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 15 100,8 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 335,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 123,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 928 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 912 tani tashkil qildi.


Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 485,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 7,7 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 4 865,1 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,7% ni tashkil qildi.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Sariosiyo (130,1 %), Uzun (125,4 %) va Denov (108,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 473 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 472 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 393,5 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 9,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 82,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



2025-y.

2026-y.



IV. META MA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A. Dusnazarov Tel: +998554518000 (7540)	Ijrochi: A. Dusnazarov Tel: +998554518000 (7541) e-pochta:info@surxonstat.uz	Manzil: 190108, Termiz sh. at-Termiziy ko'chasi,7-uy,
---	--	---	---

